viy vazifalarni bajaruvchi ramziy birliklar sifatida shakllangan. Topishmoqlarda inson qiyofasining jonsiz predmetlar, tabiat hodisalari va o‘simliklarga ko‘chirilishi antropomorfik tafakkurning yetuk darajada rivojlanganidan dalolat beradi.

Ayol (xotin, juvon, kelin) obraziga asoslangan topishmoqlarda ayol xalq tafakkurida mehnatkashlik, baraka, farovonlik va maishiy hayot markazi sifatida talqin etiladi. Bu obrazlar biologik yoki tashqi estetik belgilardan ko‘ra, ijtimoiy-funksional mazmun asosida shakllangan. Ayol obrazining sinonimik qator (xotin, juvon, kelin) orqali berilishi xalq tilining boyligini va dialektal qatlamlarning faol ishtirokini namoyon etadi. Qoshiqdon, qulf-kalit, igna-ip kabi buyumlarning ayol obrazi orqali tasvirlanishi esa jonsiz predmetlarning vazifasini insoniy sifatlar orqali anglashga intilish xalq tafakkuriga xos xususiyat ekanini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Britannica, The Editors of the Encyclopaedia. Riddle. Encyclopedia Britannica, 21 Mar. 2021, https://www.britannica.com/art/riddle. Accessed 18 October 2021. Access mode: https://www.britannica.com/art/riddle

(2). Taylor A. English Riddles from Oral Tradition. Berkeley, Los Angeles: University of California Press, 1951, p. 1000.

(3).https://n.ziyouz.com/books/uzbek_xalq_ogzaki_ijodi/M.Abdurahimov%20(tuzuvchi).%20O'zbek%20topishmoqlari.pdf

(4). Хусаинова З. Ўзбек топишмоқлари. Тошкент, “Фан”, 1966, 116-бет.

Isakulov Sherzod Ergashboyevich (Jizzax davlat Pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi; e-mail: sher_zodbek87mail.ru)

IJODKOR MAKTUBLARI ADABIY-TANQIDCHILIKNING MUHIM MANBASI SIFATIDA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ijodkor maktublarining adabiy tanqidchilikda tutgan o‘rni Abdurauf Fitrat, G‘afur G‘ulom, O‘tkir Hoshimov maktublari misolida tahlil qilinadi. Adib, munaqqid, yozuvchi va shoirlarning “Ochiq xat”, adabiy-do‘stoni xat shaklida bitilgan maktublari adabiy tanqidchilik rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgani shubhasiz. Epistolyar janr namunasi bo‘lmish ushbu maktublarning adabiy-badiiy qimmati, ijodkor shaxsiyatini to‘laqonli yoritishda muhim manba bo‘lib xizmat qilishi maqolada izchil yoritilgan.*

Kalit so‘zlar*: epistolyar janr, maktubot, “Ochiq xat”, adabiy tanqid, munaqqid, adresat.*

Исакулов Шерзод Эргашбоевич (независимый исследователь Джизакского государственного педагогического университета; e-mail: sher_zodbek87mail.ru)

ПИСЬМА ТВОРЧЕСКИХ ЛЮДЕЙ КАК ВАЖНЫЙ ИСТОЧНИК ЛИТЕРАТУРНО-КРИТИЧЕСКОГО АНАЛИЗА

Аннотация. *В данной статье анализируется роль художественной переписки в литературной критике на примерах писем Абдурауфа Фитрата, Гафура Гулома и Откира Хошимова. Несомненно, письма писателей, критиков, поэтов и литераторов, написанные в форме «открытых писем» и литературно-дружеских писем, оказали значительное влияние на развитие литературной критики. В статье последовательно подчеркивается литературно-художественная ценность этих писем, являющихся образцами эпистолярного жанра и служащих важным источником для полного раскрытия личности автора.*

Ключевые слова: *эпистолярный жанр, письмо, «открытое письмо», литературная критика, критик, адресат.*

Isakulov Sherzod Ergashboyevich (Independent Researcher Jizzakh State Pedagogical University; e-mail: sher_zodbek87mail.ru)

CREATIVE LETTERS AS AN IMPORTANT SOURCE OF LITERARY CRITICISM

Annotation. *This article analyzes the role of creative letters in literary criticism using the examples of letters by Abdurauf Fitrat, Gafur Gulom, and Otkir Hoshimov. It is undeniable that the letters of writers, critics, writers, and poets written in the form of "Open Letters" and literary-friendly letters had a significant impact on the development of literary criticism. The literary and artistic value of these letters, which are examples of the epistolary genre, and serve as an important source for fully revealing the personality of the creator, is consistently highlighted in the article.*

Keywords: *epistolary genre, letter, “Open Letter”, literary criticism, critic, addressee.*

Kirish (Introduction). XX asr o‘zbek adabiyotida epistolyar janrning turli ko‘rinishlari yuzaga keldi va shakllandi. Ma’rifatparvar adib va yozuvchilarimiz tomonidan maktub janrining birmuncha turlari faol qo‘llanila boshlandi. Jadid ma’rifatparvar ziyolilari o‘rtasida turli munosabat bilan yozilgan adabiy

xatlar o‘zbek adabiyotida epistolyar janr rivojiga munosib hissa qo‘shdi.

Xususan, Turkistonda matbuotning paydo bo‘lishi bilan bu jarayon tezlashdi. Matbuot sahifalarida e’lon qilina boshlangan “Ochiq xat”, “Redaksiyaga xat” kabi epistolyar janr ko‘rinishlari maktublar faqat adibning o‘ziga emas, balki ommaga ham birday mo‘ljallanganligini va bu maktub orqali nafaqat asar muallifi, balki kitobxonlar ham undagi fikr yoki bahodan xabardor bo‘lganliklarini anglatadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Bu davr ijodkorlarining aksariyati o‘z adabiy-tanqidiy qarashlari izhorida xat shaklidan ham, janridan ham unumli foydalanishgan. Jumladan, Abdurauf Fitratning shu yo‘nalishdagi izlanishlari haqidagi e’tirof ham fikrimizni tasdiqlaydi: «Olimning javob chiqishlari, ba’zan luqma, “ochiq xat” hamda “samimiy dardlashuv” shaklida yozilgan” [1;290-b.].

Shuningdek, o‘tgan asrning keyingi davrlarda S.Ayniy, A.Qodiriy, G‘.G‘ulom, A.Qahhor, Oybek kabi buyuk ijodkorlar xat janri taraqqiyotida muhim o‘rin egalladilar. Bu yillarda yig‘iq va yoyiq xat ko‘rinishlari: bir kishining shaxsiy munosabati ifodalangan, matbuot sahifalarida tez-tez uchrab turgan qisqa xatlar bilan birga ochiq xat, murojaat, badiiy-publitsistik xususiyatga ega bo‘lgan yozuvchi xatining tugal namunalari va turli insonlarga turli mazmunda yozgan xatlari vujudga keldi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Adabiyotimizda “ochiq xat” namunalari O‘tkir Hoshimov ijodida ham uchraydi. Adibning “Do‘stlik hurmatdan boshlanadi” va “Qalbning oppoq daftari” maqolalari, garchi publitsistik ruknda berilgan bo‘lsa ham, adabiyotshunoslikda “ochiq xat” ruhi bilan yozilgan asar sifatida qabul qilinadi.

Abdurauf Fitratning “Yopishmagan gajaklar”i yozuvchining tanqidchiga javob maktubi tarzida yozilgan. Yozuvchi “Ochiq xat” orqali munaqqidning tanqidiy maqolasiga munasabat bildiradi. “O‘zbek adabiyoti namunalari” nomli asari ustida chiqarilgan xulosalarini asoslab berish lozimligini aytadi. “Hamma gapdan burun sizga tashakkurimni bildiraman. Lekin, baxtga qarshi, maqolangizni shucha kengaytirgansizkim, kengligi asl maqsadning yo‘qolishiga sabab bo‘lg‘on”, deya e’tirozlarini ma’lum qiladi. [3;226–227-b.]. Chunonchi, tanqidchining maqolasi asarga emas, shaxsga qaratilgani sababli, yozuvchi “ochiq xat”ni unga javob tariqasida emas, dardlashuv shaklida yozayotganini ma’lum qiladi. Munaqqid Fitratni “panturkizm”, “panislomizm” tarafdori sifatida uning Turkiya sultoniga maktub yozgani haqida keltirgan dalillarini keskin rad etadi: “Maqolangiz bir yerida meni Turkiya sultoniga maktub yozish bilan ayblaysiz. Men umrimda Turkiya sultoniga maktub yozmadim, bu menga tamoman tuhmat!” [3;228-b.].

Fitrat o‘tmishidagi yozishmalarda xatolar bo‘lganini inkor etmaydi. Ammo ularni joy-joyi bilan ko‘rsatish kerakligini bayon etadi: “Men o‘zimning yigirma yillik mutolaam, juda kuchsiz bo‘lmagan kutubxonam soyasida shu yo‘lda ishlamoqdaman. Albatta, ishlarimda yanglishlar bo‘luvi mumkin. Yanglishlarimni joy-joyi bilan ko‘rsatish kerak, ko‘zni yumib, og‘izni ochib so‘kishning ilmiy foydasi yo‘q”, deya asosli fikrlarini aytadi. Fitratning bu javobini aynan “ochiq xat” tarzida berishiga ma’lum sabablar bor. Avvalo, yuqorida ta’kidlanganidek, munaqqid yozuvchining asari atrofida tanqid qilishni maqsad qilgan bo‘lsa-da, ko‘proq ijodkor shaxsiyatini qoralashga urg‘u bergan. Shu bois “ochiq xat” usulida munosabat bildirish ayni muddaodir.

Buxoro vaziri Nasrullohbek parvonachiga yo‘llangan xatni ham Fitratning o‘zi “ochiq maktub” deya sarlavhada keltiradi. Xatning umumiy mazmunida adresatga hurmat va samimiyat sezilib turadi. Shu bilan birga, Fitrat, o‘rni kelganda, keskin savollar va e’tirozlarini ham ma’lum qilganki, bunday ifoda usuli “ochiq xatning” ta’sir kuchini yanada oshirgan. Chunonchi, “Soatma-soat Sizga umidvor tikilgan ko‘zlarimiz yumilmoqda, deydi Furqat – Sizdan yordam va najot amallarini kutishdan tolmoqda. Siz nega jim o‘tiribsiz? Shu mazlum islom ummatining umidi, hayotimizning barakoti Sizning sa’y-harakatingiz va himmatingizdir. Bu baxtsiz islom millatining xizmati va muqaddas sha’riy dinimizning mustahkamlanishi, albatta, Sizdan lozimdir. Bu muqaddas xizmat yo‘lida bir dam bo‘lsin sustkashlik qilishga Sizning haqqingiz yo‘q!” Buxoro vaziriga yo‘llangan bu xatni to‘g‘ridan to‘g‘ri uning o‘ziga yozib qo‘yish ham mumkin edi. Ammo gap millat va xalq taqdiri haqida borar ekan, fikrni “ochiq xat” tarzida yozish, barchaning e’tiborini shu masalaga qaratish o‘rinlidir. O‘z navbatida, bu savollarga birgina Fitrat emas, butun millat mamlakat vaziridan javob kutayotganini bilish lozim edi. Ana shu jihatlar “ochiq xat”da yanada yorqin aks etgan.

Shuningdek, o‘tgan asrning keyingi davrlarda S.Ayniy, A.Qodiriy, G‘.G‘ulom, A.Qahhor, Oybek kabi buyuk ijodkorlar xat janri taraqqiyotida muhim o‘rin egalladilar. Bu yillarda yig‘iq va yoyiq xat ko‘rinishlari: bir kishining shaxsiy munosabati ifodalangan, matbuot sahifalarida tez-tez uchrab turgan qisqa xatlar bilan birga ochiq xat, murojaat, badiiy-publitsistik xususiyatga ega bo‘lgan yozuvchi xatining tugal namunalari va turli insonlarga turli mazmunda yozgan xatlari vujudga keldi.

Adabiyotimizda “ochiq xat” namunalari O‘tkir Hoshimov ijodida ham uchraydi. Adibning “Do‘stlik

hurmatdan boshlanadi" va "Qalbning oppoq daftari" maqolalari, garchi publitsistik ruknda berilgan bo'lsa ham, adabiyotshunoslikda "ochiq xat" ruhi bilan yozilgan asar sifatida qabul qilinadi.

"Sharq yulduzi" jurnalining 1989-yil 6-sonida e'lon qilingan "Do'stlik hurmatdan boshlanadi" sarlavhali "ochiq xati" "Molodoy kommunist" jurnalida e'lon qilingan "Turmushdagi islom" maqolasi mualliflariga javob tarzida yozilgan. "Turmushdagi islom" maqolasi O'sh viloyatidan P.Ergashev tomonidan redaksiyaga yuborilgan xat bilan boshlanadi. Mushtariy turmushdagi qiyinchiliklar, bolalarning yupun kiyimkechagidan tortib, to'ylardagi isrofgarchilik, o'sha davrda o'zbek ayollarining o'ziga o't qo'yishi, huquqlari kamsitilayotgani kabi jihatlarga milliy va diniy urf-odatlar sabab bo'layotganini ro'kach qiladi. "Turmushdagi islom" maqolasi mualliflari ayni shu xatga asoslanib, Markaziy Osiyo xalqlarini ilmsizlik, qoloqlik, diniy xurofotga berilgan, xotin-qizlar huquqlari ayrim din peshvolari va boshqa guruhlar tomonidan tahqirlab kelinayotgani iddao qilishadi. O'.Hoshimov o'n ikki sahifadan iborat "Do'stlik hurmatdan boshlanadi" nomli ochiq xati orqali maqola mualliflarining o'rinli va o'rinsiz ayblovlariga keskin munosabat bildiradi: "Nima bo'lganda ham maqola jonkuyarlik bilan yozilgan, lekin unda O'rta Osiyo xalqlari hayot tarzini, urf-odatlarini, eng muhimi, bugungi O'rta Osiyo kishlog'idagi real ahvolni chuqur o'rganmasdan, ba'zan esa bir yoqlama, kamsituvchi ohangda aytilgan bahsli gaplar ham borki, bugungi oshkoralik va pluralizm zamonida biz ham o'z e'tirozlarimizni bildirsak, makola mualliflari ranjimas deb o'ylaymiz". Muallif "ochiq xat"ning keyingi qismida nega bu fikrga kelganligini quyidagi fikrlar bilan izohlaydi: "Ogonyok" jurnaliga rahmat. Odamlarning o'z joniga qasd qilish sabablapi murakkab ekanligini, bu faktlarni faqat bir narsaga bog'lash to'g'ri emasligini yozdi. ("Ogonek".1989-yil 3-son). "Turmushdagi islom" maqolasi mualliflari esa O'zbekiston ayollari azbaroyi shariat qonunlariga chidolmay, o'ziga-o'zi o't qo'yyapti, deydilar. ...Lekin, aytaylik, Moskvada o'zini o'ldirgan 1275 kishi (shular jumlasida ayollar ham) azbaroyi xristian dini aqidalariga isyon tarzida shunday qilgan, deb keskin xulosa chiqarilsa qanday bo'larkin?" Muallif mulohazalarining so'ngida xalqlar do'stona hayot kechirishi kerakligini, bu do'stlik hech qachon biryoqlama bo'lmasligini takror esga solib o'tadi. Ayniqsa, qaltis masalalarda jindek birtomonlikka yo'l qo'yilsa, boshqacha tus olishini ta'kidlaydi: "Do'stlik ko'p tomonlama harakat qiluvchi ko'chadir. Ehtimol, bu ko'chada kimdir bir-biriga yo'lbo'shatar, kimdir bir-biriga yordam ko'lini cho'zar... Do'stlikning birinchi belgisi esa, o'zaro hurmat. Biz maqola mualliflariga aql o'rgatmoqchi emasmiz. Shunga karamay, bunday qaltis masalalarda jindek birtomonlikka yo'l qo'yilsa, xalqlarning ming yillardan beri amal qilib kelayotgan udumlari, urf-odatlari diniy aqidalar bilan aralash-quralash qilib yuborilsa, by ydymlap kimgadir g'ayritabiiyrok tuyulgani uchun oz bo'lsa-da kamsitilsa, yaxshi maqsadda qilingan ish ("Turmushdagi, islom" makolasi yaxshi niyatda yozilgan.) mo'ljaldagidan boshqacharoq natija berishi ham mumkin". Aslida, ikki yozishma ham mushtariylardan kelgan xatlar asosida yozilgani e'tiborlidir. Tahririyatga yo'llangan qisqa, yig'iq shaklidagi bunday xatlar, katta va yirik chiqishlar, "ochiq xat"larning yozilishiga turtki bo'lgan. O'. Hoshimovning mazkur yozishmasi bu fikrning yorqin tasdig'idir.

Adabiy-tanqidiy maktublarda qiyoslash qismi hajman ko'p bo'lib, bu xatlardagi kompozitsion bo'lakning asosiy qismi hisbolanadi. Albatta, bunday unsurlarning barchasi bir xat doirasida uchramasligi mumkin. Ammo muallifning qiyoslash, tasvir vositalardan maqsadli foydalanishi xatning badiiy ta'sirchanlik quvvatini oshiradi.

Shu nuqtai nazardan G'afur G'ulomning quyidagi adabiy-tanqidiy maktubning tuzilishini ko'rib o'tish mumkin. G'afur G'ulomning "Yosh shoir Amin Umariyga o'rtoqlik xati" shoirning uch she'ri gazetada bosilishi munosabati bilan yozilgan. Xatning birinchi qismida murojaat, ya'ni tanqidchilarning ozchiligi, hamma asarlarga ulgura olmasligi (holbuki, tanqidchilik har bir asarga o'z munosabatini bildirishi kerak, bunga tanqidchilik aybini xaspo'shlayotgan shoirning buyuk qalbi ham ko'rinib turibdi), tajribalarni o'rtoqlashish, "bir o'rtoq sifati bilan koyish" maqsad qilib qo'yilgan.

Xatning ikkinchi qismida shoir she'riyatini tahlil qilish orqali uning mohiyati ochib beriladi, keyin Yana murojaatdan foydalaniladi. Bu ikki qism bir-birini to'ldirib, dalillab, xatdagi pafosni kuchaytirib boradi. G'afur G'ulom xatda shoir she'rlaridan misol keltirib, kitobxonning diqqatini mazmunga jalb qiladi. "Ikki yoshlik" she'rini tahlil qilar ekan, G'.G'ulom mazmunni yanada oydinlashtirish uchun turk shoiri Tavfiq Fikratbekning bir bayt she'rini ham misol tariqasida keltiradi.

«Do'stim Aminjon!, deb xitob qiladi G'.G'ulom.–Bu she'ringiz syujet jihatdan yaxshi. Lekin anchagina jiddiy kamchiliklarga ham egadir». Shundan keyin xatning uchinchi qismi boshlanadi: Munaqqid shoirning kamchiliklarini, birma-bir dalillab ochib bera boshlaydi, bosh g'oya kuchliroq, ta'sirliroq talqin etiladi.

G'.G'ulom she'rning o'ziga yoqqan va yoqmagan tomonlarini xat egasiga-shoir A.Umariyga yotig'i bilan tushuntirib beradi. Ba'zida lirik chekinish qilib-o'zining istaklarini ifodalaydi. «Birinchi ikki satrda

juda yaxshi obraz va ikkinchisida soddagina qilib aytilgan bir samimiylik bor she'rda, shunaqa paytlar ko'p bo'lsin» [2;197-b.]. Xatning xotima qismida bosh g'oya yanada aniqroq qilib: maktubni yozishdan maqsad nima ekanligi, adabiyotni "baland darajaga ko'tarish" va boshqa shunday masalalar ifodalanadi.

O'z fikrini "do'stlik maslahatlari" deb hurmat bilan so'zini tugatadi. Bunday olijanoblik va yuksak madaniyat G'.G'ulomning olimlik va insoniylik qiyofasini bezagan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Ko'rinadiki, bu xatning tuzilishi puxta qurilgan, maqsad qisqa va aniq ifodalansa-da, ba'zi jihatlari bilan taqrizga o'xshab ketadi (avval ozgina bo'lsa-da, asarning yutug'ini, keyin kamchiliklarini ko'rsatishiga ko'ra, bir qolipga solingan (shablon) taqrizlarni eslatadi), ammo ulardan bevosita murojaat ruhining kuchliligi va qismlarni birlashtiruvchi bo'laklari bilan farq qiladi. Maktubda samimiylik, kuyunchaklik sezilib turadi. Buning ustiga xatdagi tasvir uslubining bir-biriga uyg'unligi, fikrning mazmunli, izchil va ta'sirchan bayoni diqqatga sazovordir.

Fitratning Buxoro vaziri Nasrullohbek parvonachiga yo'llangan xati ham munaqidga javob tariqasida yozilgan "Yopishmagan gajaklar" sarlavhali "ochiq xati" ham adresatning faqat o'ziga qaratilgan gaplar, deb tushunmaslik kerak. Muallif Buxoro vaziri Nasrullohbek parvonachiga yo'llagan xati orqali mamlakat va millatning tobora tanazzulga yuz tutayotganidan ogoh etib, buni faqat vazir ezgu islohotlar bilan bartaraf etishi mumkinligini bayon etadi: "Butun mamlakat va millatni shu ahvolga keltirib qo'ydikki, dunyodagi eng qiyin va tashvishli kunlarda yashayotgan odamlar ham bizning ahvolimizg'a ma'yus tortib, qon yig'-lamoqdalar. Har qancha ko'z va quloqlaringizni berkitib olsangiz ham bu qadimgi islom millatining faryodi va bu muqaddas mamlakatimizuga achinmay turolaymiz. Lekin bu jimgina achinishdan ne foyda? Bu ket-ma-ket kelayotgan musibatlar aro Siz kabi komil shaxsning harakatsiz achinishi va sukut holati qachongacha davom etadi?" Muallifning biz yuqorida tilga olgan maqsadi keyingi bandda yaqqol namoyon bo'ladi: "Bu kun zalolat va gumrohlik zanjirining asiri bo'lgan bizning holimizg'a Hazrati Rabb' ul-izzatning rahmi bo'lib yuborilgan Sizsiz va bizning tojdor oliy hazrat padari mehribonimizni hozirgi va kelgusi mushkul-liklardan Sizgina xabardor eta olasizki (amir) bizning ishlarimizni nazoratiga sizni jalb etgan".

O'Hoshimovning "Do'stli hurmatdan boshlanadi" nomli "ochiq xati" Markaziy Osiyo xalqlariga bildirilgan biryoqlama qarashlarga chek qo'yish, har bir masalaga adolat , qonun va insoniylik nuqtayi nazaridan baho berishga chaqiriq edi. Adib "Turmushdagi islom" maqolasi mualliflarining o'rinli va o'rinsiz ayblovlariga keskin munosabat bildiradi: Aslida, ikki yozishma ham mushtariylardan kelgan xatlar asosida yozilgani e'tiborlidir. Tahririyatga yo'llangan qisqa, yig'iq shaklidagi bunday xatlar, katta va yirik chiqish-lar, "ochiq xat"larning yozilishiga turtki bo'lgan. O'.Hoshimovning mazkur yozishmasi bu fikrning yorqin tasdig'idir.

G'afur G'ulomning "Yosh shoir Amin Umariyga o'rtoqlik xati" esa yosh shoir ijodiga baho berish va shu orqali uning nuqsonlarini ko'rsatish xatning bosh g'oyasi hisoblanadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi xu-losalarga kelish mumkin.

Birinchidan, XX asr boshlarida adabiy tanqidning boshqa shakllari kabi maktublar ham tanqidiy yo'sinda bo'lib, tanqidchilikning muhim va o'ziga xos shakli sifatida tanqidiy tafakkurning rivojlanishiga ma'lum darajada hissa qo'sha oldi.

Ikkinchidan, Ijodkorlar faoliyatiga aloqador epistolyar janrga mansub namunalar ular shaxsini oydin-lashtirishda bugun adabiyotimiz va yondosh tadqiqot sohalari uchun ham qimmatli manba sifatida xizmat qilishi shubhasiz.

Uchinchidan, Yozuvchi-shoirlarning xatlarini jamlab bir maxrajga keltirish – badiiy adabiyotda epis-tolyar asarlarning shakllanishi va taraqqiysi uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Maktublarga xos bo'l-gan samimiy va ochiq izhor, siqiqlik, o'quvchi qalbini zabt etadigan lirizm kabi maktublarga xos shakllar adabiy tanqidchilik uchun ham muhim manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

(1). Болтабоев Х. XX аср бошлари ўзбек адабиётшунослиги ва Фитрат илмий мероси. Тошкент, "Фан", 1993, 290-бет.

(2). Ғ.Ғулом. Мукаммал асарлар тўплами. 4-жилд, Тошкент, "Ғ.Ғулом", 1990, 197-бет.

(3). Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 4-жилд, Тошкент, "Маънавият", 2000, 228-бет.

(4). Marhabo Qo'chqorova. Maktublar – qalb ko'zgusi: https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/mar-abo-ch-orova-maktublar-alb-k-zgusi/